

ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR MAKTABIDA O'QUVCHILARNI TABIATSHUNOSLIK HAQIDAGI BILIMLARINI EKSORSIYALAR ORQALI SHAKILLANTIRISH

Haydarov Islomjon Hatamjon o'g'li

haydarovislomjon359@gmail.com

Qo'qon DPI Inklyuziv ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida tabiatshunoslik haqidagi bilimlarini ekskursiyalar yordamida shakillantirish. Shuningdek ekskursiyalarning eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar hayotidagi ahamiyati va o'rnini haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: Ekskursiya, tabiat, metodika, eksperiment, fizik hossa, yashil makon, nutq, borliq, fazo, tabiat hodisalari.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim muassasalarida ekskursiyalar nihoyatda ahamiyatlidir. Ekskursiyalar nafaqat o'quvchilarni tabiat haqidagi bilim va ko'nikmalarni shakillantiradi, balki ularni nutqini rivojlantiradi, borliqdagi turli hil tovushlarni farqlash qobiliyati o'sib boradi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida ekskursiyalar o'tkazishda o'qituvchining topshirig'iga muvofiq mustaqil ish bajarilishi (Barglar yig'ish, foydali qazilmalar kolleksiyasini yasash, qurigan shoxlarni qirqish, rasmlar chizish, o'lchashlar o'tkazish va x.k.)larga katta e'tibor beriladi. Ish bajarish oldidan o'quvchilar o'qituvchidan topshiriqlar oladilar, u o'quvchilarni ish uslubi (masaalan, qanday barglarni yig'ish, shoxlarni qanday kesish, o'simliklarini qanday kavlal olish) bilan tanishtirib boriladi. Ekskursiyalarda maktab oldi maydonidagi ishlardagidek o'qituvchi hilma-xil metodik uslublardan foydalanib, bolalarga yordam ko'rsatadi.

Sinflarda ko'rgazmali qurollar tayyorlash bo'yicha amaliy ishlar olib boriladi. Ular uchun kerak bo'ladigan narsalarni tabiat qo'ynida o'tkaziladigan ekskursiyalarda ham maktab oldi maydonidagi ishlarda ham yig'ish mumkin. Tabiatshunoslik bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda, mehnat darslarida kichik maktab yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilari ushbu ko'rgazmali qurollarni: tuproqlar, foydali qazilmalar va hashorotlar kolleksiyalarini, hashorotlardan karam kapalagi, tut ipak qurti rivojlanishni aks etdiruvchi stendni, gerabariylar (barglarning xar-hil shakllari, ularning ranglarini o'zgartirishi, o'lkaning har-xil manzarali daraxt va butalari, o't-o'simliklarning shoxlari, o'simliklarning urug'ida izchil rivojlanishi bosqichlari) ni tayyorlashlari mumkin.

Shunday qilib, darsning maqsadi va mazmuniga qarab o'qituvchi o'qitishning hilma-xil metodlari hamda uslublarini qo'llaydi. O'qituvchi qanaqa metod va uslublar tanlamasin ulardan kompleks, bir-birini to'ldirgan holda foydalanishi bu asosiy maqsad –

o'rganilayotgan tabiat jismlari va hodisalarining bolalar tomonidan qabul qilib olinishini yaxshilashga hamda tabiatshunoslik fanining tushunchalarini to'g'ri shakllanishiga va nutqni rivojlanishiga, lug'at boyliklarini oshishiga xizmat qilinishi kerak.

Eksprementlar ko'pincha fiziologik jarayonlarini o'rganishda o'tkaziladi. Eksprementlar uzoq va qisqa muddatli bo'ladi. Tabiatshunoslik hamda botanika darslarida o'tkaziladigan qisqa muddatli eksprement yoki tajribaga urug'ning tarkibi, tuproqning fizik hossalari, bargda kraxmal hosil bo'lishi va shunga o'xshashlarni o'rganishga umum ma'lum ishlar misol bo'la oladi.

Odatda, ekspremental ishlarni o'quvchilar darsdan tashqari mashg'ulot (individual va guruh) sifatida maktabning tirik tabiat burchagi yoki o'quv tvjriba maydonida bajaradilar,

Amaliy ishlar kuzatuv va tajribalarni to'ldiradi, tabiiy materialni o'rganishda bolalarni birlashib ijodiy ravishda ishlashga o'rgatadi.

Amaliy ishlar dars jarayonida, ekskursiyalarda olingan bilimlarni xar tomonlama mustaxkamlashga imkon beradi. Bundan tashqari, amaliy ishlar bolalarda mehnat malakalari va ko'nikmalari hosil bo'lishiga, mustaqil ishlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABITYOTLAR

1. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте – М.: Просвещение, 1991.
2. Зыков С.А. Проблемы сурдопедагогики. Избранные труды.- М.: «За-грей».-С. 180-182.
3. Fayziyeva U.Y. Zaif eshituvchilarni savodga tayyorlash va savod o'rgatish.: Ped. fan. nomz. dis. ... avtoref. – Toshkent: TDPI. 1994. – 18 b.
4. Nazarova D. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limini takomillashtirish. // Bolani maktabga tayyorlash sifat va samaradorligini oshirishning ilmiy-amaliy yechimlari. Xalqaro ilmiy- amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2007. – B. 60-63.
5. . Haydarov, Islomjon, and Saminaxon Odiljonova. "KAR BOLALAR MAKTABLARIDA O'QUVCHILARNING TALAFFUZINI SHAKLLANTIRISH VA ESHITISH IDROKINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA KORREKSION MASHG'ULOTLAR MAZMUNI VA ULARNING TASHKIL ETILISHI." Инновационные исследования в современном мире: теория и практика 2.18 (2023): 103-106.
6. Haydarov, Islomjon, and Orzujahon Qayumova. "ESHITISHIDA MUAMMOLARI BO'LGAN BOLALARDA ESHITISHNI TEKSHIRISH VA ULARNING YAKKA MASHG'ULOTLARGA JALB QILISH." Наука и инновация 1.11 (2023): 52-56.
7. Hatamjon o'g'li, Haydarov Islomjon. "Technologies for the Formation Of The Skill Of Creative Thinking In Weak Auditory Students." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022): 265-271.